



TURKISTON TO'PLAMIDA ROSSIYA VA QOZOQ XONLIGI MUNOSABATLARI TARIXIDAN

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Jahon tarixi kafedrası
assistenti*

Rayimov Farhod Ulug'bekovich

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Rossiya imperiyasi tomonidan Qozoq xonligi hududini o'z tarkibiga qo'shib olish jarayoni ancha mufassal bayon qilingan. Bunda Qozoq xonligi tarkibidagi juzlarning Rossiya imperiyasi tarkibi qo'shilishni Turkiston to'plami ma'lumotlar asosida tahlil qilib o'tilgan.*

Kalit so'zlar. *Rossiya, Qozoq xonligi, Turkiston to'plami, Kichik juz, O'rta juz, Pyotr I, Katta juz, Orenburg general-gubernatorligi.*

Аннотация: *В этой статье довольно подробно описан процесс присоединения территории Казахского ханства к Российской империи. При этом состав Российской Империи джузов в составе Казахского ханства анализировался на основе данных Туркестанского сборника.*

Ключевые слова. *Россия, Казахское ханство, Туркестанский сбор, Малый жуз, Средний жуз, Петр I, большой жуз, Оренбургское генерал-губернаторство.*

Annotation: *This article is a fairly detailed description of the process of annexing the territory of the Kazakh Khanate by the Russian empire into its composition. In this case, the composition of the Russian Empire of the juzs within the Kazakh Khanate was analyzed on the basis of data from the Turkestan collection of the annexation.*

Keywords. *Russia, Kazakh Khanate, Turkestan collection, little juz, Middle juz, Peter I, big juz, Orenburg governorate general.*

Rus tarixiy manbalarida qozoqlar haqidagi dastlabki ma'lumotlar Ivan IV Grozniy davriga keltirilgan. Aynan 1552-yilda rus podshosi Ivan IV 150 ming kishilik qo'shin



bilan Oltin O'rda xarobalarida vujudga kelgan Qozon xonligini qamal qilgan. To'plamda ruslarni shaharni qanday qo'lga kiritishi haqida ma'lumot berilgan. Unda yozilishicha, ruslar shaharni qamal qilgandan so'ng 48 barell po'rox solingan bo'chkalar yordamida mudofaa devorini buzishgan¹. Shu yilning 2-oktyabr sanasida shahar ruslar qo'liga o'tgan. Qozon egallangandan 4 yil o'tgandan so'ng Astraxan shahri ham Rossiya tarkibiga qo'shib olingan. Aynan ushbu voqealar natijasida Rossiyaning sharqiy chegarasi bevosita Ural daryosi bo'ylariga tutashadi. O'z navbatida Ural daryosining chap sohillarida qozoq qabilalari ko'chmanchilik bilan hayot kechirar edi. Aynan ushbu davrdan boshlab ruslar qozoqlar haqida ayrim ma'lumotlarga ega bo'lgan.

1567-yilda rus podshosi Ivan IV Pekin shahriga ikki kazak Petrov va Yalichevni elchi sifatida yuborgan². Bu elchilar aynan Ural daryosini kechib o'tgan holda bugungi Qozog'istonning shimoliy qismi orqali Baykalga va undan janubga qarab harakatlanib Pekin shahriga yetib borishgan. Bu elchilar o'z sayohatlari natijasida ruslar qozoqlar to'g'risida yanada ko'proq ma'lumotlarga ega bo'ladi. Bu ma'lumotlarda ham o'z navbatida qozoq xalqi qirg'iz nomi bilan uchraydi. Lekin aynan bu davrda Rossiya to'g'ridan to'g'ri Qozoq xonligi chegarasiga xavf tug'dirmagan. Shu sababdan ikki o'rtadagi munosabatlarga jiddiy tus olmagan.

To'plamda qozoqlar haqida asosan Rossiyaning bu mintaqaga kirib kelishiga oid ma'lumotlar ko'proq uchraydi. Aynan Qozoq xonligining siyosiy jihatdan kuchsizlanishi natijasida vujudga kelgan juzlar ko'chmanchi jung'orlar tayziqidan qutilish maqsadida o'zlariga ishonchli homiy topishga harakat qilgan. Bunday homiy sifatida maydoga Rossiya chiqib kelgan.

Turkiston to'plamining 48 va 592 tomlarida Qozoq juzlarining Rossiya ta'siriga tushish holati ancha mukammal bayon qilingan. To'plamning 592 tomida qozoqlar jung'orlar bosqinidan qutilish maqsadida Rossiya homiyligiga o'tganligi qayd etilgan. Bunga ko'ra dastlab, 1730-yilda Kichik juz xoni Abulxayrxon Ufa shahriga o'z

¹ Беткер Е.К. История завоевания Средней Азии / Туркестанский сборник 592 т. Тошкент. –С.10.

² O'sha asar..... –С.11



elchilarini yuborgan. Bu elchilar ushbu shaharda biroz vaqt to'xtagandan so'ng ruslar hamrohligida Sankt-Peterburgga borishgan. Kichik juz elchilari poytaxtda yaxshi kutib olinib, sovg'a-salomlar bilan ortga qaytarib yuborilgan. 1731-yil 19-fevralda imperator Anna Ioannovna Xon Abulxayrga Kichik juz aholisini Rossiya fuqaroligiga qabul qilish to'g'risidagi buyruq chiqargan. Podsho hukumati elchi sifatida Pyotr I ning Eronga qarshi harbiy yurishlarida tarjimonlik qilgan polkovnik A. Tevkelevni qozoqlar yurtiga yuborgan³. O'sha vaqtda Rossiya hukmdori bo'lgan Anna Ivanovna A. Tevkelevning shaxsiy fazilatlarini to'g'ri baholagan holda ayan uni Kichik juzga yuborishi bejiz emas edi. O'sha davr tarixchilaridan biri Rychkov o'zning "Orenburg tarixida bir necha nufuzli odamlar" asarida A. Tevkelevni shaxsiy fazilatlarini ancha yuqori baholgan⁴. Uning so'zlariga ko'ra Kichik juz qozoqlarining Rossiya fuqaroligiga tezda otishida aynan A. Tevkelevning ximati katta bo'lgan. U Abulxayrxon va Kichik juzning sultonlari qarshisida juda yaxshi nutq qilgan. Uning so'zlari shunchalik ta'sirli bo'lganki, natijada juzning juda ko'plab sultonlari va oqsoqollari tezda fuqarolikka ixtiyoriy o'tishga rozi ekanliklarini bildirgan.

To'plamda A. Tevkelevning nutq so'zlash jarayoni ham batafsil bayon qilingan. Shunday qilib Kichik juz qozoqlari Rossiya fuqaroligiga o'tishga o'z roziligini bildirgan. To'plamda keltirilgan ma'lumotga ko'ra bu yig'ilishda O'rta juz xoni Semek ham qatnashgan⁵. U ham A. Tevkelevning nutqidan hayratlanib O'rta juz qozoqlarini ham Rossiya fuqaroligiga o'tkazilishiga o'z roziligini bildirgan. Bu holat tezda salbiy tomonga o'zgarib O'rta juz va Rossiya o'rtasidagi aloqalar yomon tomonga qarab o'zgargan. Bunga sabab sifatida O'rta juz sultonlari Rossiya ixtiyorida bo'lgan Sibir hududlariga uyushtirgan bosqinchilik harakatlari bo'lgan. Natijada O'rta juzning Rossiya fuqaroligiga o'tish jarayoni biroz ortga surilgan.

Kichik juz Rossiya fuqaroligiga qabul qilingach 1734-yil may oyida Senatning bosh kotibi I.K.Kirillov boshchiligidagi Orenburg ekspeditsiyasi tashkil etildi. Bu

³ Беткер Е.К. История завоевания Средней Азии / Туркестанский сборник 592 т. Тошкент. –С.32.

⁴ О'sha asar..... –С.32.

⁵ Беткер Е.К. История завоевания Средней Азии / Туркестанский сборник 592 т. Тошкент. –С.33.



ekspeditsiya natijasida to'plangan ma'lumotlarga asoslangan holda I. Kirillov o'sha yilning o'zida Kichik juzda ma'muriy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bo'yicha ikkita loyihani hukumatga taqdim qilgan⁶. U ekspeditsiya natijasida Rossiyaning Qozoq dashtlaridagi mavqeini mustahkamlashning juda yaxshi yo'lini hukumatga taqdim qilgan. Unga ko'ra qozoqlar va boshqirdlar o'rtasidagi munosabatlarning ziddiyatlashuvi bu mintaqada Rossiyaning ta'sirining ortishiga olib kelishi mumkinligini aytgan. Amalda rus hukumati ushbu taklif bo'yicha ishlar ham olib borgan.

Kichik juz aholisining Rossiya fuqaroligiga qabul qilinishi bu hududlar to'liq ruslar ta'siri tezda kuchayishiga olib kelmadi. Kichik juz qozoqlari Rossiya fuqaroligini qabul qilgan bilan amalda ruslar siyosatiga zid ishlar bilan shug'ullanishgan. 1735-yilda Orenburg shahriga asos solinganligi qozoqlarni ancha tashvishlantira boshlagan. Uralning chap sohili hududlarining boshqirdlarga berilishi ham qozoqlarning keskin e'tiroziga sabab bo'lgan. Bu e'tirozlar rus hukumati tomonidan hal etilmagach harbiy to'qnashuvli holatlar sodir etila boshlagan. Qozoqlarni rus fuqaroligiga qabul qilinganidan ikki yil o'tib ikki o'rtadagi munosabatlar ancha yomonlashgan. Qozoqlar endilikda nafaqat boshqirdalar, shu o'rinda Uralning sohillarida yangi tashkil qilinga rus qishloqlariga ham hujumlar uyushtira boshlagan. Bu holar Rossiya hukumatini qattiq tashvishga solgan. Vujudga kelgan ziddiyatli vaziyatni bartaf qilishga dastlab Kirilovni o'zi, keyinchalik uning o'rniga Orenburg gubernatori bo'lgan Tatishev harakat qilgan. Tatishev mavjud vaziyatni to'g'ri tushungan holda Kichik juz xoni bilan kelishiv yo'lini izlagan. Shu maqsadda 1738-yil 3-avgustda Abulxayrxonni Orenburgga taklif qilgan⁷. Bu uchrashuvda rus hukumati Kichik juz xoni talablarini bir qismini bajarishga majbur bo'lgan.

Turkiston to'plamining 592 tomida Kichik juzni Rossiya tarkibida saqlab qolish uchun rus hukumati tomonidan qilingan amaliy ishlar batafsil bayon qilingan. Unda

⁶ O'sha asar..... –С.33.

⁷ Беткер Е.К. История завоевания Средней Азии / Туркестанский сборник 592 т. Тошкент. –С.34.



keltiriladigan ma'lumotlarga asoslanadigan bo'lsak ruslar Kichik juzni to'liqligicha Rossiya tarkibiga kiritishga ancha qiynalgan. Shu sababdan ham ruslarning O'rta Osiyoning qolgan hududlariga harakatlari ancha vaqtga cho'zilgan. Kichik juz yerlari qo'shib olingach yangi ma'uriy birlik, yani, To'rg'ay viloyati tashkil qilinadi⁸. Bu viloyat Orenburg gubernatorligi ixtiyoriga beriladi.

Shunday qilib Kichik juz Rossiya ta'sirida saqlab qoling. Rus hukumatining keyingi maqsadi O'rta juzni ham o'z tarkibiga qo'shib olish bo'lgan. To'plamdagi keltirilgan ma'lumotga ko'ra O'rta juz xoni Semekxon 1737-yilda Rossiya fuqaroligiga o'tish uchun qasamyod qabul qilgan⁹. Lekin bu holatga rus hukumati unchalik ishonqaramay qaragan. Qasamyod qabul qilishiga qaramasdan O'rta juz qo'shinlari ikki marta Rossiya hududlariga bosqinchilik harakatlarini amalga oshirgan. Ahamiyatli jihati ikkinchi bosqinchilik yurishida Semekxonning o'zi ham qatnashgan. To'plamda 1737-yillarda juz aholisi sonini 406 ming kishi deya keltirgan¹⁰.

O'rta juzda hokimiyat Semekxon qo'lida turgan vaqtda Rossiya har tomonlama xavotirlangan. Chunki juz aholisining Rossiya fuqaroligini qabul qilishi nomigagina bo'lgan. Bunga sabab sifatida Semekxon boshchiligidagi qozoqlarning Sibir hududlariga bosqinlarini keltirishimiz mumkin. Lekin bu holat uzoqqa cho'zilmadi. Semekxon vafot etishi O'rta juzdagi vaziyatni keskin o'zgarishiga sabab bo'ldi. Uning vorisi bo'lgan Barakxon o'z hokimyatini saqlab qolish uchun Rossiyaga yaqinlashishga majbur bo'lgan. Shu masadda 1742-yilda o'z elchilarini Sankt-Peterburgga yuborgan¹¹. Bu elchilik orqali u Yelezavettadan O'rta juz xalqini Rossiya fuqaroligiga qabul qilishni so'ragan. Uning bu so'rovi Rossiya tomonidan ma'mnuniyat bilan qabul qilingan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Qozoq xonligi tarkibiga kirgan juzlarning Rossiya tarkibiga qo'shilishi bu asosan yuqori tabaqa vakillarining o'z hokimiyatini saqlab qolishga qilgan harakati natijasi bo'lgan. Bunga misol qilib Kichik juz xoni

⁸ Межов В.И. Области Сибирских Оренбургских киргизов Туркестанский сборник 48 т. Санкт-Петербург. – С.156.

⁹ O'sha asar..... –С.48.

¹⁰ Беткер Е.К. История завоевания Средней Азии / Туркестанский сборник 592 т. Тошкент. –С.48.

¹¹ O'sha asar..... –С.49



Abulxayrxonning olib borgan siyosatini keltirishimiz mumkin. Chunki Kichik juzning aholisining kattagina qismi Rossiya tarkibiga kirishga qarshi bo'lgan. Bu holat Turkiston to'plamida ancha batafsil yoritilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Беткер Е.К. История завоевания Средней Азии / Туркестанский сборник 592 т. Тошкент.
2. Межов В.И. Области Сибирских Оренбургских киргизов Туркестанский сборник 48 т. Санкт-Петербург.
3. Межов В.И. Сибирских-Киргизский степь / Туркестанский сборник 25 т. Санкт-Петербург.
4. Межов В.И. Очеркъ торговли Семерченской области / 33 т. Санкт-Петербург 1871 г.